

O'LMAS UMARBEOVNING "ODAM BO'LISH QIYIN" ROMANIDA QO'LLANGAN ANTROPONIMLARNING FUNKSIONAL XUSUSIYATLARI

S.B.Xursanqulov

Osiyo xalqaro universiteti magistranti

Sh.X.Sadinova

Sharof Rashidov nomidagi

SamDU Markaziy Osiyo xalqlari tillari va madaniyati instituti

1-bosqich talabasi.

Annotatsiya: Mazkur maqolada O'lmas Umarbekovning "Odam bo'lish qiyin" romanida qo'llanilgan antroponimlarning funksional jihatlari tahlil qilinadi hamda ularning personaj xarakterini tasvirlashdagi ahamiyati yoritiladi. Qolaversa, adibning nom tanlashdagi individual mahoratlari tahlil va tadqiq qilinadi. Tadqiqot natijalari badiiy matn lingvistikasi va onomastika sohasida olib borilayotgan hamda kelgusida olib boriladigan ilmiy izlanishlarning nazariy va amaliy asoslarini boyitishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: antroponimlar, funksional xususiyatlar, nominativ vazifa, lingvistik tahlil, onomastika.

Abstract: This article analyzes the functional aspects of anthroponyms used in O'lmas Umarbekov's novel "Odam bo'lish qiyin" and highlights their role in portraying character traits. In addition, the author's individual skill in selecting names is examined and evaluated. The results of the study contribute to enriching the theoretical and practical foundations of ongoing and future research in the fields of literary text linguistics and onomastics.

Keywords: anthroponyms, functional features, nominative function, linguistic analysis, onomastics.

Аннотация: В данной статье анализируются функциональные особенности антропонимов, использованных в романе О'лмаса Умарбекова «*Odam bo'lish qiyin*», а также раскрывается их роль в характеристике персонажей. Кроме того,

рассматривается и исследуется индивидуальное мастерство автора в выборе имен. Результаты исследования способствуют обогащению теоретических и практических основ проводимых и будущих научных изысканий в области лингвистики художественного текста и ономастики.

Ключевые слова: антропонимы, функциональные особенности, номинативная функция, лингвистический анализ, ономастика.

Antroponimlar – bu tilshunoslikning onomastika (nomshunoslik) bo‘limida o‘rganiladigan, insonlarga berilgan maxsus nomlardir. “Antroponim” so‘zi yunon tilidan olingan bo‘lib, “**anthropos**”-inson, “**onyma (onoma)**”- nom “*inson nomi*” degan ma’noni anglatadi. Antroponimlar tarkibiga quyidagilar kiradi: kishi nomlari, familiyasi, otasining ismi va shaxslarga qo‘yilgan taxalluslar (ijodiy yoki laqab nomlar). Antroponimlar nomshunoslikning eng muhim bo‘g‘inlaridan biridir. Bugungi kunda tilshunoslikda badiiy matnni lingvistik jihatdan o‘rganish, undagi antroponim birliklarning funksional va semantik xususiyatlarini tahlil qilish muhim yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Negaki, shaxs nomlari badiiy matnda nafaqat nominativ vazifani bajaradi, balki obraz yaratish, xarakter ochish hamda muallifning estetik niyatini ifodalashda muhim lingvopoetik vosita sifatida namoyon bo‘ladi. Shu bois, antroponimlarni tadqiq etish badiiy matnning chuqur qatlamlarini ochishga xizmat qiladi [7,6]. Ushbu soha bugungi kunda ham o‘z dolzarbligini yo‘qotgani yo‘q hamda ko‘plab tilshunos olimlarining e’tibor markazida bo‘lib kelmoqda. Xususan, dots. Z.Davronova (*Abdulla Avloniyning nasriy asarlarida uchraydigan antroponimlarning lingvistik tahlili* [3,8] , dots. U.Ergashov (*ingliz va o‘zbek tillaridagi antroponimlarning kelib chiqishi* [4,6] hamda dots.M.Abdulazizovalarning (badiiy matnda antroponimlarning qo‘llanishi [1,6] tadqiqotlarini keltirib o‘tishimiz, fikrimizning yaqqol dalilidir. Bundan tashqari, dots.M.Abdulazizova o‘zining tadqiqotlaridan birida “*Badiiy asarlarda antroponimika muhim badiiy-estetik va ma’no yuklovchi vosita hisoblanadi. Qahramonlarga berilgan ismlar tasodifiy bo‘lmay, ular orqali muallif obrazning xarakteri, ichki dunyosi va ruhiy holatini ochishga intiladi. Ismlar qahramonning fe‘l-atvori, taqdiri yoki muallif ilgari surmoqchi bo‘lgan g‘oya bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, asar mazmunini chuqurlashtiradi.*

Shu bilan birga, antroponimlar asarda milliy va madaniy koloritni yaratishda muhim rol o‘ynaydi, chunki ismlar orqali asar voqealari kechayotgan muhit, davr va xalqning mentaliteti namoyon bo‘ladi. Qahramon ismi uning ijtimoiy kelib chiqishi, jamiyatdagi mavqeyi va muhitga mansubligini ham anglatishi mumkin. Ayrim hollarda muallif ismlardan kinoya yoki ramziy ma’noda foydalanib, o‘z munosabatini ifodalaydi, obrazni yanada ta’sirchan qiladi.” degan fikrlarni ilgari suradi [1.9].

Ushbu tadqiqotimiz o‘zbek milliy adabiyotining taniqli adiblaridan biri bo‘lgan O‘lmas Umarbekovning “Odam bo‘lish qiyin” romani asosida olib boriladi, chunki adibning ushbu asarida antroponimlar muhim nominativ va funksional vazifalarni bajarib kelishi bilan e’tiborlidir. Mazkur maqolaning asosiy vazifasi ham ushbu badiiy asarni lingvistik va lingvopoetik jihatdan tadqiq etish, romandagi bosh qahramonlarga berilgan shaxs nomlarining ma’noviy va vazifaviy xususiyatlarini o‘rganishdan iborat. Adibning ushbu romaniga to‘xtaladigan bo‘lsak, muallif bu romanida ko‘plab antroponimlardan foydalangan. Xususan, asarda keltirilgan antroponimlarning umumiy soni 82 ta bo‘lib, ulardan 58 tasi kishilarning ismlari, 16 tasi familiyalari va 8 tasi laqablar hisoblanadi. Biz ushbu nomlarni (antroponimlarni) yanada chuqurroq o‘rganib, quyidagi jadval asosida yoritib berishga harakat qildik.

ASARDA QO‘LLANILGAN ANTROPONIMLAR

Bosh obrazlar	Epizodik obrazlar	Ismlar	Familiyalar	Taxallus va laqablar
Abdulla	Qosimjon	Yusufjon	Sharipov	Abusha
Gulchehra	Nurmat	Oxunjon	Lomonosov	Svetka
Sayyora	Zahro	Zarifa	Saidova	Svetik
Hojar	Buvinisa	Xolida	Sagdullayev	Abul
Obid	Teshavoy	Ergash	Qurbonov	Tolstoy
G‘afurjon	Mannop	Siddiq	Zokirov	Gobbi

Tursunali	Tursun	Tito	Markov	Nyuton
Samad	Homid	Halima	Aleksandrov	Vitenka
	Ahror	Djinni	Merime	Pushkin
	Dadavoy	Dusya	Xeminguey	
	Zumrad	Gerakl	Dostoyevskiy	
	Yusuf	Samson	Zolya	
	Shahodat	Sofiya		
	Saodat	Botir		
	Zumrad	Saida		
	Alisher	Natasha		
	Inomjon	Otinbibi		
	Husanxon			
	Rustam			
	Po'lat			
	Sanobar			
	Qobiljon			
	Muqim			
	Sulaymon			
	Viktor			
	Zara			
	Sanobar			
	Abstutay			

	Zubayda			
	Karomat			
	Mamlakat			
	Saida			
	Muslim			
	Sveta			

Bundan tashqari, mazkur asardagi bosh qahramonlarning ayrimlarini nominativ xususiyatlari hamda ularning asar doirasidagi funksional jihatlariga ham e'tibor qaratib o'tamiz. Xususan, asarning bosh qahramonlaridan biri *Abdulla* bo'lib, ushbu antroponim *E.Begmatovning "O'zbek ismlari ma'nosi"* lug'atida *Abdulla(ar.) – Allohning quli, Allohning bandasi [2,14] degan ma'nolarda ishlatiladi*. Ushbu antroponim asarda o'qimishli, ota-onasini hurmat qiladigan obraz sifatida tasvirlangan bo'lsa-da, u o'z manfaati uchun unga ishongan, uni sevgan Gulchehraga xiyonat qiladi. *Abdulla* kelajakda yaxshi hayot kechirish, biror ilmiy-tekshirish institutiga rahbar bo'lish, umuman olganda, o'z manfaatlarini amalga oshirish maqsadida Sayyoraga uylanmoqchi bo'ladi. Negaki, Sayyoraning otasi akademik Tursunali Qurbonov obro'li, hamma joyda so'zi o'tadigan, "qo'li uzun" inson bo'lib, u *Abdullaga* qo'ldan kelgancha yordam berishi, yo'l ko'rsatishi hamda *Abdulla* istagan lavozimga uni joylashtirib qo'yishi mumkin edi. Oqibatda, olim bo'lish uchun odamiyligini yo'qotgan *Abdulla Gulchehraning* o'limiga sabab bo'ladi. Ushbu antroponim *E.Begmatovning "O'zbek ismlari ma'nosi"* lug'atida *Allohning quli, Allohning bandasi ma'nolarida* izohlanganidek hech bir ijobiy jihatlarni o'zida mujassamlashtirmaydi. Aksincha, adib *Abdulla* obrazi orqali hayotda o'z foydasi uchun hamma narsaga tayyor bo'lgan, sadoqat nimaligini bilmaydigan, bevafo, xiyonatkor insonlar xarakterini ochib beradi.

Bundan tashqari, asarning yana bir bosh obrazlaridan biri hisoblangan Gulchehra *E.Begmatovning "O'zbek ismlari ma'nosi"* lug'atida *Gulchehr(ft.) – gulyuzli, xushro'y,*

sohibjamol qiz [2,103] deya ta’riflangan. Darhaqiqat, ushbu antroponim yuqoridagi ayni lug‘aviy ma’noda, balki undan ham mukammalroq qilib ta’riflanadi. Muallif Gulchehrani shu qadar chiroyli, go‘zal holatda tasvirlaydiki, uni jo‘xorizorda uchratgan Abdulla Gulchehraga ancha vaqt tikilib qoladi hamda aqldan ozadi. Abdulla oldin ham shaharda chiroyli qizlarni ko‘p ko‘rgan edi, ammo Gulchehraning go‘zalligi, sofdilligi va samimiyligi Abdullani maftun etgandi. Umuman olganda, adib ushbu qahramon orqali samimiy, sodda, sofdil o‘zbek qizini jonlantiradi.

Asarning yana bir asosiy personajlaridan biri bo‘lgan Sayyora *E.Begmatovning* “*O‘zbek ismlari ma’nosi*” lug‘atida *Sayyora(ar.) – tez harakat qiluvchi yulduz, toleyi baland* [2,364] *ma’nolarida izohlanadi*. Mazkur asarda ushbu qahramon sho‘x-shaddod, yoshligidan erka bo‘lib o‘sgan, g‘am-alam nimaligini bilmaydigan, hayotning achchiq-chuchugini ta’timagan erka qiz sifatida gavdalantirilgan. Asarda Sayyora baxtli taqdir egasi bo‘lishi bilan birga, hayot sinovlarida yetarlicha chiniqmagan, sho‘x-shaddod shaxs sifatida talqin etilgan. Muallif ushbu antroponimning “toleyi baland” ma’nosi orqali qahramon xarakterining mazkur jihatlarini ochib bergan.

Qolaversa, ushbu romanda bir qancha epizodik obrazlar mavjud bo‘lib, bu antroponimlar asarda muhim lingvopoetik vazifani bajarishga xizmat qiladi. Quyida ushbu antroponimlarni linvistik nuqtayi nazardan batafsil yoritishga harakat qildik.

Antroponimlar	Qaysi tildan kelib-chiqqanligi	E.Begmatovning “O‘zbek ismlari ma’nosi” lug‘atidagi lug‘aviy ma’nosi	Shakllari
Shahodat	Arabcha	Guvohlik beruvchi yoki to‘g‘ri, haq yo‘li(din yo‘li)da halok bo‘luvchi [2,491] ma’nosida izohlanadi.	–

Qosim	Arabcha	Taqsimlovchi, inson qismatini belgilovchi [2,548] ma'nosida izohlanadi. Bu nom Muhammad (s.a.v) payg'ambarimizning o'g'lining ismi bo'lgan	Qosimboy, Qosimjon, Qosimbek, Qosimtoy
Nurmat	Arabcha	Payg'ambar baxsh etgan ziyo, baxt [2,302] ma'nosida izohlanadi.	–
Zahro	Arabcha	Yorqin, ravshan, oq yuzli [2,150] ma'nosida izohlanadi.	–
Buvinisa	O'zbekcha-arabcha	Buvisining ismi bilan atalgan ayol(qiz) [2,77] ma'nosida izohlanadi.	–
Teshavoy	O'zbekcha	Teshadek mustahkam va o'tkir bo'lib o'ssin, baloqazolarga chidamli bo'lsin [2,410] ma'nosida izohlanadi.	–
Mannop	Arabcha	Oliyjanob, himmatli. Bu nom Allohning sifatlaridan biri [2,209] ma'nosida izohlanadi.	–

Tursun	O‘zbekcha	Yashasin, omon, sog‘ bo‘lsin [2,429] ma’nosida izohlanadi.	Tursunbek, Tursunoy, Tursunjon, Tursunqul, Tursunxon
Homid	Arabcha	Shukur qiluvchi, qanoat qiluvchi sabr-toqatli [2,577] ma’nosida izohlanadi.	Homidjon, Homidboy, Homidxon
Ahror	Arabcha	Oliyjanob, himmatli, muruvvatli [2,42] ma’nosida izohlanadi.	–
Dadavoy	O‘zbekcha	Marhum dadasi (otasi) yoki bobosining ismi berilgan bola yoki ulg‘ayib otasidek kishi bo‘lsin yoxud sovg‘a, tuhfa qilingan bola [2,108] ma’nosida izohlanadi.	–
Zumrad	Fors-tojikcha	Yashil tusli qimmatbaho tosh; zumraddek qimmatli, bebaho qiz yoki ko‘k ko‘zli qiz [2,158] ma’nosida izohlanadi.	–
Yusuf	Qadimiy yahudiycha	Iosifning arabcha shakli [2,524] <i>deya izohlangan.</i>	Yusufbek, Yusufboy,

			Yusufjon, Yusufxon
Saida	Arabcha	Baxtli, saodatmand qiz [2,361] ma'nosida izohlanadi.	Saidabibi, Saidaxon, Saidabonu
Saodat	Arabcha	Baxtli, iqqolli, baxtiyor [2,374] ma'nosida izohlanadi.	–
Alisher	Arab-forscha	Sherdek jasur, dovyurak bo'lib o'ssin va Ali qo'llab yursin [2,29] ma'nosida izohlanadi.	–
In'om	Arabcha	Tuhfa, tortiq qilib berilgan bola [2,168] ma'nosida izohlanadi.	In'omboy, In'omjon
Husan	Arabcha	Hasan ismining erkalash- kichraytirish shakli bo'lib, yaxshi, mehribon, saxiy, chiroyli, go'zal ma'nolarini anglatadi [2,582].	Husanboy, Husanjon, Husanxon
Rustam	Pahlaviycha	“Avesto”dagi Raodastan so'zidan yasalgan bo'lib, ulkan gavdali, qudratli dovyurak, bahodir [2,354] ma'nolarida izohlanadi.	Rustambek, Rustamboy, Rustamxon

		Abulqosim Firdavsiyning “Shohnoma” dostonidagi Zol o‘g‘lining ismi.	
Po‘lat	Fors-tojikcha	Po‘latdek mustahkam yashaydigan, umri uzoq bola [2,343] ma’nosida izohlanadi.	Po‘latboy, Po‘latjon, Po‘latxon
Sanobar	Arabcha	Xushqomat, chiroy daraxtining nomi sanavbardek go‘zal, kelishgan, xushbichim qiz [2,373] ma’nosida izohlanadi.	–
Muqim	Arabcha	Turg‘in, sabab, mahkam, ya’ni yashaydigan, o‘lmaydigan [2,265] ma’nosida izohlanadi.	Muqimboy, Muqimjon
Sulaymon	Qadimiy yahudiycha	Himoyalangan, berk, muhofazaga olingan, shikast topmaydigan yoki tinch, osoyishta [2,397] ma’nosida izohlanadi.	
Zubayda	Arabcha	Ayollarning eng yaxshisi, a’losi [2,156] ma’nosida izohlanadi.	–

Karomat	Arabcha	Oliyjanoblik, saxiylik, saxovat yoki mo'jiza, mo'jizali bola [2,181] ma'nosida izohlanadi.	–
Mamlakat	Arabcha	O'lka, diyor; ona yurt farzandi [2,208] ma'nosida izohlanadi.	–
Shoh Muslim	Arabcha	Islom diniga bo'ysingan, musulmon, xudojo'y bola [2,261] ma'nosida izohlanadi.	–

Bundan tashqari, ushbu badiiy asarda *Markov, Pushkin, Merime, Xeminguey, Dostoyevskiy, Tolstoy, Gobbi, Zolya, Lolobridjida, Aleksandrov, Lomonosov, Viktor, Zara, Abstutay, Nyuton, Tito, Djinni, Dusya, Gerakl, Samson, Natasha* kabi bir nechta antroponimlar qo'llanilgan bo'lib, ushbu nomlar o'zbek tiliga xos bo'lmagan birliklar hisoblanadi. Shu bois, mazkur antroponimlar o'zbek tilining ichki semantik tizimi nuqtayi nazaridan mustaqil ma'no anglatmaydi va asosan nominativ funksiyani bajaradi.

Xulosa qilib aytganda, O'lmas Umarbekovning "Odam bo'lish qiyin" romanida qo'llanilgan antroponimlar nafaqat nominativ birlik sifatida, balki muhim lingvopoetik vosita sifatida ham namoyon bo'ladi. Tadqiqot jarayonida asardagi shaxs nomlari qahramonlarning xarakteri, ichki dunyosi, ijtimoiy mavqeyi hamda muallifning estetik niyatini ifodalashda faol ishtirok etadi. Xususan, Abdulla, Gulchehra, Sayyora kabi bosh obrazlar nomlari ularning individual xususiyatlarini ochib berishda semantik va funksional jihatdan muhim yuklamaga ega ekanligi kuzatildi. Shuningdek, epizodik obrazlar tarkibidagi antroponimlar ham badiiy matnning mazmuniy va stilistik boyishini ta'minlab, milliy koloritni yaratishda muhim rol o'ynaydi. Turli til qatlamlariga mansub antroponimlarning qo'llanilishi esa asarda davr, muhit va madaniy aloqalarning aks etishini ko'rsatadi. O'zbek tiliga xos bo'lmagan nomlarning asosan nominativ vazifa

bajarishi ham ularning funksional chegaralarini belgilab beradi. Umuman olganda, adibning nom tanlashdagi individual mahorati, antroponimlardan maqsadli va o‘rinli foydalanishi badiiy matnning ta’sirchanligini oshirishga xizmat qilgan. Mazkur tadqiqot natijalari badiiy matn lingvistikasi va onomastika sohasida antroponimlarning funksional-semantik xususiyatlarini yanada chuqurroq o‘rganishda nazariy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdulazizova M. Badiiy matnda laqablarning onomastik va funksional xususiyatlari // [International Online Multidisciplinary Conference: 2026: “Zamonaviy ilm-fanda olim ayollarning o‘rni” mavzusidagi II respublika ilmiy-amaliy anjumani.](#)
2. Бегматов Э. Узбек исмлари маъноси. – Тошкент: ЎзМЭ, 2007. –608 б.
3. Davronova Z. Abdulla Avloniyning nasriy asarlarida antroponimlar tahlili // [International Online Multidisciplinary Conference: 2026: “Zamonaviy ilm-fanda olim ayollarning o‘rni” mavzusidagi II respublika ilmiy-amaliy anjumani.](#)
4. Ergashov U. Antroponimlar va familiyalar: ingliz va o‘zbek tillaridagi kelib chiqish, tasnif va semantik guruhlar // [International Online Multidisciplinary Conference: 2026: “Zamonaviy ilm-fanda olim ayollarning o‘rni” mavzusidagi II respublika ilmiy-amaliy anjumani.](#)
5. Каримов С. Ўзбек тилининг бадий услуби. – Самарқанд: Зарафшон нашриёти, 1992.
6. Umarbekov O‘. Odam bo‘lish qiyin. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2016. –352 b.
7. Xursanqulov S.B., Abduazimova D.Z. Functional and semantic characteristics of anthroponyms used in Said Ahmad’s short story “Qoplon” // Web of Humanities: Journal of Social Science and Humanitarian Research. -Ispaniya. Volume 4, Issue 4. -B. 5-7.